

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29- avgust 2025 yil

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110300-Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)

Fan/modul kodi MK1105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikka kirish		60	90	150
I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarni oliy ta’lim tizimiga tayyorlash, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’limni uzviyligini ta’minlash, talabalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar tavsifi, ular bilan olib boriladigan korreksion ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni hamda texnologiyalari borasida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatiga shaxsiy, motivasion, kognitiv, amaliy tayyorligini ta’minlashdir. Fanning vazifasi – talabani oliy ta’lim tizimiga moslashtirish, mustaqil ta’limga o‘rgatish va yo‘naltirish, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’limni uzviyligini ta’minlash, maxsus pedaogikaga oid boshlang‘ich tushunchalarni umumlashtirishdan iborat. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Mutaxassislikka kirish fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Nottingem universiteti (Angliya)ning Nevrologiya asoslari fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 108-o‘rinni egallagan bo‘lib, o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Nottingem universitetining maxsus ta’lim kursida pedagogik nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro shaxsiy me’yorlar, ayniqsa Angliya ta’lim tizimini amalga oshirish munosabatlari tartibga solinadi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar pedagogik holatlarni mustaqil tahlil qilish, g‘oyalarga tayangan holda shaxsiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar.					
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					

1-mavzu. Maxsus yordamga muhtoj bolalarga differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish. Aloxida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullari. Korreksiya, kompensasiya, adaptasiya, reabilitasiya ishlari. 2-mavzu. Maxsus yordamga muhtoj bolalar toifalari. Aloxida yordamga muhtoj bolalar toifalari. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus pedagogika fanining ob'yekti sifatida. Aloxida yordamga muhtoj bolalarning umumiy tavsifi. Aloxida yordamga muhtoj bolalar ta'limining huquqiy asoslari. 3-mavzu. Intellektual nuqsonli bolalar. Intellektual kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari. Ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar. Kasb- xunar kollejlari. Aqliy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish 4-mavzu: Oligofrenopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari. Fanning metodlari, tamoyillari. Aqliy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish 5-mavzu. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari. RRS turlari. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. 6-mavzu. Autizm sindromli bolalar. Autizm spektri buzilgan bolalar. Autizm spektri buzilgan bolalarning psixologik-pedagogik tasnifi. Autizm spektri buzilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. 7-mavzu. Daun sindromli bolalar. Daun sindromi etiologiyasi. Daun sindromi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi. Daun sindromi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar 8-mavzu. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tizimi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi 9-mavzu. Tiflopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va uning psixologiyasi. Guruhlari, korreksiyasi hamda ta'lim tizimi 10-mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xosligi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi 11-mavzu. Surdopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tavsifi. Kar va zaif eshituvchi
--

o'quvchilarni o'qitish jarayoni. Zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonining mohiyati.

12-mavzu. Mujassam nuqsonli bolalar. Mujassam nuqsonli bolalar tavsifi. Mujassam nuqsonli bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. Mujassam nuqsonli bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

13-mavzu. Logopediya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari. Nutq kamchiligi bor bolalar tavsifi. Nutq kamchiliklari klassifikatsiyasi. Nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablari. Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarda kuzatiladigan nutq kamchiliklari.

14-mavzu. Nevrologiya asoslari

Ushbu modul sizga odamlarning asab tizimining asosiy tamoyillariga yaxshi asos beradi. Mavzular orasida neyroanatomya, uyali nevrologiya, neyrofarmakologiya, sezgir tizimlar, neyroendokrinologiya, xotira, xulq-atvor nevrologiyasi va asab tizimi kasalliklari kiradi.

15-mavzu. Fizioterapiya BSc

Insonlar murakkab mavjudotlardir, ammo jarohat yoki kasallik tanani kerak bo'lgan tarzda ishlashiga to'sqinlik qilsa nima bo'ladi? Klinik joylashtirish, amaliy va simulyatsiya qilingan amaliyotni o'rganish orqali bizning yangi akkreditatsiyadan o'tgan

III. Amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Maxsus yordamga muhtoj bolalarga differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish.
2. Maxsus yordamga muhtoj bolalar toifalari.
3. Intelektual nuqsonli bolalar.
4. Oligofrenopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari.
5. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.
6. Autizm sindromli bolalar.
7. Daun sindromli bolalar.
8. Aqliy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari.
9. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar.
10. Tiflopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari.
11. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar.
12. Surdopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari.
13. Koxlear implantli bolalar.
14. Mujassam nuqsonli bolalar.
15. Logopediya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiiy o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriiy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- mashg'ulotlarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik-psixologik tavsifini tuzish

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Maxsus yordamga muhtoj bolalarga differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish
2. Maxsus yordamga muhtoj bolalar toifalari
3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar
4. Tiflopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari
5. Og'ir nutq nuqsonlari
6. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi
7. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida ta'limtarbiya jarayonini tashkil etish
8. Nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarga logopedik o'yinlarni tashkil etish.
9. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi.
10. Tibbiy-pedagogik komissiya faoliyati.
11. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi
12. Maxsus va umumiy yo'nalishidagi maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabning uzviy va uzluksiz ta'lim jarayonini tashkil etish
13. Maktabgacha tarbiya yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi va oilaning hamkorligi.

	14. Aqli zaiflik muammosini o'rganish tarixi 15. Aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi 16. Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi 17. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xosligi 18. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi 19. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tavsifi 20. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayoni 21. Zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonining mohiyati. 22. Koxlear implantantli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rehabilitatsiyasi 23. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bilish faoliyati xususiyatlari 24. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi 25. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalarning pedagogik –psixologik tavsifi 26. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim tizimi 27. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tizimi 28. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi 29. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi. 30. Aloxida yordamga muxtoj bolalar rehabilitatsiyasi. 31. Xorijda integrasiyalashgan ta'lim-tarbiya. 32. Brayl tizimi.
3.	V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: - Oliy ta'lim tizimi to'g'risida hamda imkoniyati cheklangan bolalarga differensial va integrasiyalashgan ta'limni tashkil etish, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksiya, kompensasiya, adaptasiya, rehabilitatsiya ishlari, maxsus pedagogika fanining yo'nalishlari xakida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - Oliy ta'limdagi o'quv jarayoni va unda qo'llaniladigan o'qitish vositalari hamda mutaxassislikka kirish fani bo'yicha o'rganilgan mavzular yuzasidan mustaqil xulosa va qaror qabul qila olish, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijodiy fikrlay olish, fan bo'yicha olgan bilimni amalda qo'llay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma); - Fan yuzasidan mustaqil ta'limni amalga oshirish, kurs ishini yoza olish, aloxida yordamga muxtoj bolalarning maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan holda to'g'ri tanlay olishi, aloxida yordamga muxtoj bolalarning nuqsonlarini tasniflash, maxsus adabiyotlarni tahlil etish, bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

	(malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish. interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • ma'ruzalar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihlar; • ijodiy ishlar yaratish.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida belgilangan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar Asosiy adabiyotlar 1.S.Umarova "Maxsus pedagogikaning klinik asoslari" T-2020 2. "Maktabgacha surdopedagogika" Jamoa T-2022 3. "Logoritmika" L.Xayitov, I.Xaydarov, M.Xoboboyeva Far-2023 4. M.Maxmudova "Logopediya" T-2021 5.X.Raximova "Koxlear implanti bolalar bilan logopedik ish" T-2021 Qo'shimcha adabiyotlar 6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil 7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil 8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent "O'zbekiston" 2016 yil 9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak 10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz 11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

	1.O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. http://www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti http://www.kun.uz – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti Nevrologiya MSci Hons Nottingham universiteti Fizioterapiya BSc Hons Nottingham universiteti
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul va dastur muallifi: D.Yo‘ldasheva– Qo‘qon davlat universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrası katta o‘qituvchisi X.Raximova – Qo‘qon davlat universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi (PhD)
9.	Taqrizchilar: M. Maxmudova – Qo‘qon davlat universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi (PhD)